

# QALAMTASVIRDA BOSH RASMINI CHIZISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI



**Sherov Dilshod Reyimberganovich**  
UrDPI San'atshunoslik kafedrasi dotsent v.b.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qalamtasvir mashg'ulotlarida odam boshini chizishni o'rghanishda oddiy tasviriy vazifalarni hal qilish hamda didaktik tamoyillarini ishlab chiqish haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'quv va o'quv-ijodiy vazifalarni bajarish zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalarni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Katta shakl, kompozitsiya, sxema, konstruksiya, rakurs, yorug'lik, soya, shu'la, obraz.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы решения простых изобразительных задач при обучении рисованию головы человека на занятиях по графике, а также разработка дидактических принципов. Кроме того, приводятся практические рекомендации по повышению необходимых знаний, умений и навыков при выполнении учебных и учебно-творческих заданий.

**Ключевые слова:** Крупная форма, композиция, схема, конструкция, ракурс, свет, тень, отблеск, образ.

**Abstract:** This article examines the issues of solving simple artistic tasks in teaching how to draw the human head in graphic arts classes, as well as the development of didactic principles. In addition, it provides practical recommendations for improving the necessary knowledge, skills, and abilities when completing academic and educational-creative assignments.

**Keywords:** This article examines the issues of solving simple artistic tasks in teaching how to draw the human head in graphic arts classes, as well as the development of didactic principles. In addition, it provides practical recommendations for improving the necessary knowledge, skills, and abilities when completing academic and educational-creative assignments.

Mashhur rassom-pedagog va olim N.N.Rostovtsev o'zining pedagogik amaliyotida tasviriy vazifalarni hal qilishning quyidagi didaktik tamoyillarini ishlab chiqqan:

- bilimlarning tushunarli bo'lishi;
- materialni o'rghanishda tizimlilik va izchillik;
- ishdagi onglilik va faollik;
- bilimlarni mustahkam o'zlashtirish;
- qo'yilgan vazifalarni ilmiy asosda hal qilish;
- ta'limning ko'rgazmaliligi;
- tarbiyaviy ta'limning bir vaqtida amalga oshirilishi.

Muayyan tasviriy vazifani hal qilishda unga bog'liq bo'lgan qo'shimcha vazifalarni ham hal qilish zarurati tug'iladi. Asosiy vazifani o'qituvchi belgilaydi. Ikkinci darajali vazifalar esa chizuvchining o'zi tomonidan aniqlanadi. Masalan, o'qituvchi quyidagi vazifani qo'yadi: yordamchi chiziqlar orqali odam boshining katta shaklini qurish1. Ushbu vazifani bajarish jarayonida chizuvchi tasvirning nuqtasini aniqlashi, bajarilish texnikasini va chizish materialini tanlashi, tasvirning kompozitsiyasini aniqlashiga to'g'ri keladi.

Odam boshini chizishni o'rghanish oddiy tasviriy vazifalarni hal qilishdan boshlanadi va

tobora murakkabroq hamda ko'proq ijodiy vazifalarni yechish bilan yakunlanadi.

Oddiy vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin: tasvir kompozitsiyasini aniqlash, sxema va konstruksiya yordamida boshning katta shaklini qurish, boshning katta shaklini tasvirlashda yorug'lik va soyani hal qilish1 va hakazo. Aslida, bosh rasmini yaratishning har bir qurilish bosqichi alohida mustaqil vazifa bo'lishi mumkin.

Murakkab vazifalarga quyidagilar kiradi: odam boshining anatomik plastikasini tasvirlash, burilishlar, harakatlar va rakurslarni tasvirlash (obyektni ko'zdan uzoqda joylashgan qismlarning kuchli qisqarishlari bilan perespektiv tasvirlash), shakllarni qayta ishlab chiqish, yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda teri fakturasini va materiallik sifatlarni ko'rsata olish, yuz mimiklari va insonning tashqi o'xshashligi va boshqalar.

Eng murakkab vazifalar modelning nafaqat tashqi o'xshashligini ko'rsata olish, balki modelning ichki holatini ham yetkazishdir, va bu faqat yaxshi tayyorlangan chizuvchi qo'lidan kelishi mumkin.

Rasm chizishning maqsad va vazifalari o'quv predmeti sifatida ijodiy rasm chizishning maqsad va vazifalaridan farq qiladi. O'quv rasm chizish naturani o'rganish asosida olib boriladi. Bu jarayonda birinchi o'ringa o'quv-tahliliy vazifalar qo'yiladi, ya'ni grafik vositalar yordamida hajmli shaklni qurish o'rganiladi. Har qanday yuzani fazoda qanday bo'lsa, xuddi shunday biz idrok qilgandek chizish qobiliyatini shakllantirish qalamtasvirni o'rgatishning asosiy maqsadidir.

Eslatib o'tamiz: rasm chizishning (ijodiy vazifaning) eng muhim vazifasi - badiiy obrazni yaratishdir; hajmli fazoviy shaklni yetkaza olish - uni amalga oshirishning muhim vositasidir.

Barcha tasviriy xarakterdagи vazifalarni o'quv, o'quv-ijodiy va ijodiy vazifalarga ajratish mumkin.

Chizuvchilar uchun o'quv vazifalari o'qtuvchi tomonidan qo'yiladi. Uning rahbarligida o'quv qalamtasviri amalga oshiriladi. Biroq, chizuvchiga asosiy o'quv vazifasi bilan bir qatorda kam ahamiyatli vazifalarni ham hal qilishga to'g'ri keladi. Asosiy vazifaga bog'liq bo'lgan vazifalar soni qanchalik ko'p bo'lsa va ularni chizuvchi mustaqil hal qilishga to'g'ri kelsa, rasm chizish jarayoni shuncha ijodiy xususiyat kasb etadi.

O'quv va o'quv-ijodiy vazifalarni bajarish zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalarni ta'minlaydi; mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, tasvirning baholovchi mezonlari shakllanadi, ular keyinchalik ijodiy ishlarda qo'llaniladi. Shu tariqa, o'quv qalamtasviri ijodiy qalamtasvir uchun asos bo'lib bo'lib xizmat qiladi.

Ijodiy rasm chizish ko'proq atrof-muhitni estetik baholashga asoslanadi, o'quv qalamtasvir bajarish esa uni anglashga qaratilgan, shuning uchun o'quv va ijodiy vazifalar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud emas.

Odam boshini chizish ma'lum ko'nikmalarni va malakalarni talab qiladi. Modelni qabul qilish qoidalarini, tasvir qonunlarini va plastik anatomiya bilimlarini bilmasdan, barcha jihatlar bo'yicha professional darajada savodli tasvir yaratish mumkin emas.

Odam boshini chizishni o'rganish oddiy tasviriy vazifalarni hal qilishdan boshlanadi va tobora murakkabroq hamda ko'proq ijodiy vazifalarni yechish bilan yakunlanadi.

Odam boshini rasmini chizishga kirishishdan oldin, kesik boshni<sup>1</sup>, shuningdek, Mikelanjelo tomonidan yaratilgan Dovud haykali boshining gipsdan yasalgan bo'laklarini (quloq, burun, og'iz, ko'zlar) chizish kerak. Bu jarayon gips bosh va ekorshe<sup>1</sup> bosh rasmini uzoq vaqt davomida chizilganidan keyin bajarilishi lozim.

Odam boshi rasmini chizish uchun aniq anatomik va plastik bosh shakliga ega bo'lgan modelni tanlash lozim. Yaxshisi, mo'ylov va soqolsiz keksa yoshdagi erkak naturachini tanlash yaxshiroq.

Modelni turli ko'rish nuqtalaridan ko'rib chiqib, o'quv topshirig'ini muvaffaqiyatli bajarishga mos keladigan ko'rish nuqtasini tanlash kerak. (Keyinchalik har qanday ko'rish nuqtasidan rasm chizishni o'rganish lozim bo'ladi.)

Agar chizuvchi topshiriqni o'tirgan holda bajarayotgan bo'lsa, u stulni tanlashi kerak – bu

orqali u turli nuqtai nazarlardan modelni ko‘rish uchun yon tomonga egilishi osonroq bo‘ladi. Tajribali rassomlarga tasvirni tik holda bajarish maqsadga muvofiq, chunki chizuvchi rasmga yaqinlashishi yoki undan uzoqlashishi mumkin, bu esa uni model bilan solishtirish va uni oddiy tomoshabin kabi – uzoq masofadan qabul qilish imkonini beradi.

Uzoq muddatli rasmni bajarishdan oldin nafaqat boshni turli ko‘rish nuqtalaridan ko‘rib chiqish, balki kichik formatdagi qog‘oz varag‘ida bir necha eskiz yoki xomaki tasvirlar bajarish maqsadga muofimdir. Bunday eskizlar ishslash jarayonida naturachining bosh shakli sinchiklab ko‘rish orqali o‘rganiladi.

Model darhol tabiiy holatiga ega bo‘lmaydi, shuning uchun chizuvchi xomaki tasvirni bajarganidan keyin yana bir bor boshning fazodagi holatiga, uning egilgani va burilishiga, yuz ifodalariga yana bir bor e’tibor qaratishi lozim.

O‘qitishning dastlabki bosqichida rasm chizishni o‘rganayotganlarga boshni uchdan ikki qism holatida tasvirlash tavsiya etiladi – bu holatda boshning katta shakli, uning old va yon qismlari hamda ularning perspektiv qisqarishi aniqroq ko‘rinadi.

Modelni yoritish tabiiy va sun‘iy bo‘lishi mumkin. Boshni chizishni o‘rganishning dastlabki bosqichida sun‘iy yoritishni qo‘llash tavsiya etiladi, chunki u boshning plastik shaklini aniqlashga va naturachining individual xususiyatlarini ta’kidlashga yordam beradi. Yoritgich (sofit) odatda modelning o‘ng tomonini yuqorida va yon tomondan yoritadigan qilib o‘rnataladi. Agar yorug‘lik manbai modelga yaqin joylashgan bo‘lsa, boshning katta shakli yaxshi ko‘rinadi, lekin mayda detallar yo‘qoladi. O‘qitishning dastlabki bosqichida kuchli va kontrastli yoritishni qo‘llash kerak, yakuniy bosqichda esa yumshoqroq yoritishni tanlash lozim. Bu holatda modelning shakli yumshoq yoritilib, boshning detallari (lablar, burun, ko‘zlar, quloqlar, doimiy va vaqtinchalik burmalar) yanada aniq ko‘rinadi. O‘qish jarayonida yorug‘lik manbalarini almashtirish va tabiiy hamda sun‘iy yoritishda rasm chizish lozim. Shuningdek, boshning yoritilgan va soyali qismlarining maydonini o‘zgartirib, rasm chizishda nostandard vaziyatlarni yaratish tavsiya etiladi.

Odatda model bir xil rangli mato (yoki devor) fonida joylashtiriladi. Mato yoritilgan bosh qismida biroz to‘qroq, soyali qismida esa boshning yoritilgan qismlariga qaraganda yorug‘roq qilib o‘rnataladi. (Keyinchalik odam boshi rasmini ikkita mato – turli tusli va yirik burmalar bilan o‘ralgan fon yordamida bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.) Boshning yoritilgan qismiga yaqin joyda to‘qroq mato, soyali qismida esa yorug‘roq mato joylashtirilishi mumkin. Yorug‘ mato ko‘proq yorug‘likni aks ettiradi, ya’ni boshning soyali qismida ko‘proq reflekslar paydo bo‘ladi. Ba’zan boshning soyali qismiga qarshi oq qog‘oz varag‘i o‘rnataladi. Oq qog‘oz varag‘i yorug‘likni aks ettirib, boshning soyali qismida reflekslarni kuchaytiradi. Matolar va oq qog‘oz varag‘i boshning plastik shaklini va uning individual xususiyatlarini kuchaytirish uchun qo‘llaniladi.

Dastlabki qalamtasvirlar fonsiz yoki qisman fon qo‘shilishi bilan bajariladi, bu esa diqqatni modelning tasviriga qaratishga imkon beradi va uni o‘rab turgan muhitni ifoda etishni talab qilmaydi. Odam boshining uzoq muddatli qalamtasvirlarini yakuniy bosqichini bajarayotganda fon qo‘shiladi, bu fon tasvir bilan bog‘lanishi va modelning hajmli va makonli shaklini ifodali yetkazishga bo‘ysunishi kerak. Tasvirlangan fon bosh joylashgan makonni ifodalashi lozim. Fon tasvirni yaxshilashi va uni yanada ifodali ko‘rsatishi kerak.

O‘rganishning dastlabki bosqichida modelni gorizont chizig‘idan bir oz yuqoriqqa joylashtirish tavsiya etiladi. Bunday holat nafaqat boshning yon va oldingi tekisliklarini, balki burun asosi, pastki lab va iyak tekisliklarini ham ko‘rish imkonini beradi, shuningdek, ko‘z chuqurlaridagi ko‘zlarning chuqurligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Keyinchalik, turli burchaklar va rakurslarda, gorizont chizig‘idan turli masofalarda qisqa muddatli va uzoq muddatli qalamtasvirlarni bajarish tavsiya etiladi.

Boshning o‘quv rasmlarini qog‘ozning to‘rtidan biri qismida bajarish tavsiya etiladi. Tasvir model boshidan kichikroq bo‘lib, qo‘l kaftining uzunligiga yoki ochiq kaft holatidagi katta barmoq va kichik barmoq uchlari orasidagi masofaga teng bo‘lishi kerak, ya’ni odam boshining yuz qismi balandligiga teng bo‘lishi lozim. Tajriba orttirgach, rasmlarni qog‘ozning yarmida va ixtiyoriy formatdagi qog‘ozda bajarish kerak.

Naturachining boshi qalamtasviri ustida ishlayotganda, chizuvchi tirik inson tanasining

qismlari individual tuzilishiga ega ekanligini unutmasligi kerak (masalan, odam boshining chap tomon shakli o'ng tomon shakliga mos kelmaydi - boshning ikki tomoni o'rtasida hamisha assimetriya mavjud; modelning ko'zlarini bir chiziqda joylashmagan bo'lishi mumkin va hokazo).

Boshning soch qoplamini tasvirlashda uning bosh yuzasida qanday joylashganligini inobatga olish kerak, shuningdek, soch qoplamidagi yorug'lik taqsimoti boshning katta shaklidagi yorug'lik taqsimotiga mos kelishimi esda tutish zarur. Shu bilan birga, alohida xarakterli jingalaklar va tolalarning tasviri, ularning faktura va material sifatlarini aniq yetkazish katta ahamiyatga ega. Buning uchun muayyan shtrixlardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganimizda boshning shakli o'quv rasmida perspektiva va plastik anatomiyanı tamoillariga muofiq quriladi, biroq mashhur realist rassomlarning rasmlarini tahlil qilsangiz, ularda inson boshining shaklini perspektiva va anatomiya qoidalaridan chetlashishlarini ko'rishingiz mumkin. Buning sababi shundaki, perspektiva, anatomiya, yorug'lik va soyani taqsimlash qoidalari rassom oldiga qo'yilgan asosiy vazifani – badiiy obraz yaratishni hal qilish uchun vositadir. Shuningdek, rassomlar tomoshabinning tasvirni qabul qilish psixologiyasi va o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, ko'rish illyuziyalarini hisobga olganlar. Shuning uchun, modelning individual xususiyatlarini payqash va ularni o'z ishida aks ettirish muhimdir.

### **Foydalangan adabiyot ro`yxati:**

1. Baymetov B. Qalamtasvir (portret) O'quv qo'llanma. T., 2022-yil.
2. Baymetov B. Portret qalamtasviri. Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., 2001-yil.
3. Azimov S.S. Plastik anatomiya. O'quv qo'llanma. Buxoro, 2022-yil
4. Нестеренко В.Е. Рисунок головы человека. Учебное пособие. Минск., 2014.
5. Гордон, Л. Рисунок. Техника рисования головы человека. М., 2002.
6. Лушников, Б.В. Рисунок. Портрет. М., 2004.
7. Почейни, У. Искусство рисования. Минск, 2001.
8. Ростовцев, Н.Н. Рисование головы человека. М., 1989.